

O’ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA KONSTITUTSIYAVIY HUQUQ USTUNLIGINI TAMINLASH: NAZARIY VA AMALIY

Parxatov Mardonbek Davronbekovich

Toshkent davlat yuridik universiteti Ommaviy axborot vositalari huquqi bo’limi
magistranti

ANNOTATSIYA

O’z oldiga huquqiy demokratik qurishni maqsad qilgan O’zbekiston Respublikasida mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab davlat va jamiyat hayotida konstitutsiyaviy huquq ustunligi ta’minalash bo’yicha bir qator ishlar amalga oshirildi. Konstitutsiyaviy huquq ustuvorligi har bir shaxsning Konstitutsiyada va qonunlarda belgilab qo’yilgan huquq va erkinliklarini to’g’ridan-to’g’ri amalga oshirishlaridir. Mazkur ishda Konstitutsiya va qonun ustuvorligini ta’minalash bo’yicha va uning nazorati bo’yicha davlatimizda amalga oshirilayotgan ishlar va ularning huquqiy mezanizmlari haqida fikr yuritiladi. Mazkur ishda konstitutsiyaviy huquq ustunligini takomillashtirish bo’yicha tavsiya va takliflar berilgan bo’lib undan qonun ijodkorligi sohasida foydalanish mumkin.

Kalit so’zlar: Konstitutsiya, Konstitutsiyaviy huquq, huquq ustuvorligi, demokratik davlat, qonuniylik.

Mustaqil O’zbekiston Respublikasi tashkil topgandan keyin huquq ustuvorligini taminlash asosiy kun tartibidagi masalaga aylandi. Shu bilan birga mazkur ishni amalga oshirish uchun inson va fuqorolarning huquq va erkinliklari shu bilan birga majburiyatlari aks etgan Konstitutsiya zarur edi. 1992-yil 8 dekabrda uchinchi marta umumxalq muhokamasi yakunlari bo’yicha xalqimiz ijod maxsuli bo’lgan qomusimiz- Konstitutsiyamiz qabul qilindi¹⁶. “Xalqimizning siyosiy-huquqiy tafakkurining yuksak namunasi bo’lgan Konstitutsiyamiz yurtimizda demokratik

¹⁶ Azizzo’jayev A.A. va boshq. Konstitutsiyaviy huquq (izohli lug’at).-T.: Akademiya, 2001.

davlat va fuqorolik jamiyatni barpo etish, O’zbekistonning xalqaro maydonda munosib o’rin egallashida mustahkam poydevor bo’lib xizmat qilmoqda”¹⁷

Konstitutsiya (lotincha “Constitution” – tuzilish, belgilash) – davlatning asosiy qonuni. U davlat tuzilishini, hokimiyat va boshqaruv organlari tizimini, ularning vakolati hamda shakllantirilish tartibi, saylov tizimi, fuqarolarning huquq va erkinliklari, jamiyat va shaxsning o’zaro munosabatlari, shuningdek, sud tizimini hamda davlat va jamiyatning o’zaro munosabatlarini belgilab beradi¹⁸.

“Konstitutsiyaviy huquq” atamasi fuqarolarning Konstitutsiyalarda belgilab qo'yilgan asosiy huquqlariga nisbatan ishlataladi. Shaxsning huquqiy holatida fuqarolarning asosiy huquqlari Konstitutsiyaviy huquqlar deb atalib, ular konstitutsiyaviy-huquqiy normalarda mustahkamlanadi. Konstitutsiyaviy huquq normalari jamiyatdagi eng muhim masala bo’lmish - inson va davlat munosabatlarini tartibga soladi. Buning eng muhim masala deb hisoblanishi jamiyatning rivoji yoki aksincha inqirozi, inson va davlat munosabatlarining to‘g’ri o‘rnatilganligiga bog’liqdir. Konstitutsiyaviy huquq o‘z normalari orqali inson, uning huquq va erkinliklarini oliy qadriyat darajasiga ko’taradi, shaxs va davlat munosabatlarida shaxs manfaatlarining ustuvorligini belgilaydi, ijtimoiy adolat prinsipini bosh prinsip darajasiga ko’taradi, hokimiyat tuzilmalari tashkil qilinishining aniq tartibini belgilaydi va ularning faoliyatini qonun doirasida chegaralaydi. Konstitutsiyaviy huquqqa, shulardan kelib chiqib, hokimiyat va erkinlik o’rtasidagi munosabatda mutanosiblikni o‘rnatuvchi, ta’minlovchi vosita deb ham ta’rif bersa bo’ladi. Aynan shunlardan ham ko’rishimiz mumkinki Konstitutsiya davlatning eng oliy qonuni hisboblaniadi.

Mamlakatning taraqqiyoti konstitutsiyaviy tuzum barqarorligiga, u esa Konstitutsiyaga to’g’ridan-to’g’ri amal qilinishiga bog’liq. Xususan bosh qomusimizning III bobi Konstitutsiya va qonun ustuvorligi deb nomlanib, uning 15-

¹⁷ Mirziyoyev Sh. “Niyati ulug’ xalqning ishi ham ulug’, hayoti yorug’ va kelajagi farovon bo’ladi. T.: “O’zbekiston”.2018.3-tom.58-bet.

moddasida O‘zbekiston Respublikasida O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlarining ustunligi so‘zsiz tan olinadi.

Davlat, uning organlari, mansabdar shaxslar, jamoat birlashmalari, fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq ish ko‘radilar deb mustahkamlab qo‘yilgan¹⁹.

Konstitutsiya va qonunlarning ustunligi deganda, ularning norma va qoidalari boshqa har qanday huquqiy hujjatlardan yuqori turishi tushiniladi. Boshqa barcha huquqiy hujjatlar farmon, qaror, famoyish, buyruq, yo‘riqnomalar, nizomlar ularga mos bo‘lishi shart.

Shu o‘rinda Prizentimiz Shavkat Mirziyoyevning Konstitutsiyamiz qabul qilinganligining 26 yilligiga bag’ishlangan tantanada “... *bosh qomusimizni chugur o’rganish, anglash, hayotga joriy etish va unga so’zsiz amal qilish barchamizning burchimizdir*”²⁰ degan so’zlari orqali ham jamiyat va davlat hayotida qonuniylikni taminlashda Konstitutsiyaning o’rni beqiyos ekanligidan dalolat beradi. Zero barcha qonun hujjatlari va qonun osti hujjatlari ham Konstitutsiya asosida qabul qilinadi.

Fikrimizni davom ettirib Konstitusiyamizning 16- moddasiga nazar tashlaydigan bo’lsak “birorta ham qonun yoki boshqa normativ-huquqiy hujjat Konstitutsiya normalari va qoidalari zid kelishi mumkin emas”²¹ deb belgilab qo‘yilgan. Aynan shu norma Konstitutsiyaning ustunligini ta’minlovchi eng muhim prinsip va amaliy choradir. Har qanday hujjatlarning Konstitutsiya va qonunlarga mos bo‘lishini Konstitutsiyaviy sud, prokuratura organlari faoliyati orqali taminlanadi. Xususan Konstitusiyamizning 108 moddasida va “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sud to’g’risida”gi qonunning 3-moddasida “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyat hujjatlarining Konstitutsiyaga muvofiqligi to‘g‘risidagi ishlarni ko‘radi” deb belgilab qo‘yilgan. Shuningdek “Prokuratura to’g’risida”gi qonunning 2-moddasida “O‘zbekiston Respublikasi prokuratura organlarining asosiy vazifalari qonun ustuvorligini ta’minlash, qonuniylikni mustahkamlash, fuqarolarning huquq hamda

¹⁹ O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.

²⁰ Mirziyoyev Sh. “Niyati ulug’ xalqning ishi ham ulug’, hayoti yorug’ va kelajagi farovon bo’ladi. T.: “O‘zbekiston”.2018.3-tom.59-bet.

²¹ O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.

erkinliklarini, jamiyat va davlatning qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarini, O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy tuzumini himoya qilish, huquqbuzarliklarning oldini olish va profilaktika qilishdan iborat” deb mustahkamlab qo’yilgan.

Qonuniylik prinsipi-bu barcha davlat organlari, mansabdar shaxslar, xizmatchilar, jamoat birlashmalari, nodavlat tashkilotlar va fuqarolarning qonun va boshqa qonun hujjatlariga og’ishmay amal qilishidir. Bundan ko’rishimiz mumkinki qonunlarga amal qilish barchamizning vazifamizdir. Shu o’rinda takidlab o’tish joizki Birinchi Prizidentimiz Islom Karimov “*Qonuniylik va huquq tartibot tantana qilmasa, shaxsning huquqlari va erkinliklar, qattiq intizom, ichki uyushqoqlik va ma’suliyat ustuvir bo’lmasa, qonun va an’analar hurmat qilinmasa, huquqiy davlatni tasavvur qilib bo’lmaydi*”,²² - deb qonuniylikning ahamiyatini aniq ko’rsatib bergen edilar. Zeroki qonunlarga amal qilish rivojlanish va farovonlik garovi ekanligini jahon tajribasi isbotlagan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Karimov.I.A. “O’zbekiston-kelajagi buyuk davlat”.-T.: “O’zbekiston”. 1992.
- 2 Mirziyoyev Sh. ‘Niyati ulug’ xalqning ishi ham ulug’, hayoti yorug’ va kelajagi farovon bo’ladi. -T.: “O’zbekiston”. 2018. 3-tom.
3. O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.
4. Azizzxo’jayev A.A. va boshq. Konstitutsiyaviy huquq (izohli lug’at).-T.: Akademiya, 2001.
5. “O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sud to’g’risida”gi qonun.
6. O’zbekiston Respublikasi “Prokuratura to’g’risida”gi qonun.

²² Karimov.I.A.. “O’zbekiston-kelajagi buyuk davlat”.-T.: “O’zbekiston”. 1992. 38-bet.